



UDK:378.018.43:316.7

Gulobod BERDIYEVA,
Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti dotsenti
E-mail: gulobod1983@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, professor L.Bekmirzayeva taqrizi asosida

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI IJTIMOIIY-MADANIY FAOLIYATDA IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish konsepsiyasi, texnologiyalari, mazmuni, muammolari, olimlarning bu boradagi tadqiqotlari va fikrlari tahlil qilingan. "Konsepsiya" atamasi ilmiy mazmuni, tamoyillari, talim berish konsepsiyasining tuzilishi, konsepsiyani shakllantirish manbalari bo'lgan meyoriy hujjatlar tahlili, yetakchi g'oyalari keltirilgan. Shuningdek, maqolada bugungi kun oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirish konsersiyaning yetakchi g'oyalari, g'oyalar tahlili, uning talaba mustaqil ijodiy faoliyatida muhim va ahamiyatli bir nechta jihatlari ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Konsepsiya, ijodiy salohiyat, Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, fan dasturlari, Individuallashtirilgan yondashuv, tizimlilik tamoyili, modullik tamoyili, ochiqlik tamoyili, standartlashtirish tamoyili.

THE CONCEPT OF DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE POTENTIAL IN SOCIO-CULTURAL ACTIVITIES BASED ON AN AXIOLOGICAL APPROACH

Annotation

This article analyzes the concept, technologies, content, and challenges of developing the creative potential of students in higher education institutions. It explores the scientific meaning of the term "concept," its principles, the structure of educational concepts, the regulatory documents that serve as sources for forming such a concept and key ideas of the concept. Furthermore, the article emphasizes the leading ideas of the concept aimed at enhancing the creative potential of university students within socio-cultural activities. It provides an analysis of these ideas and underlines several important and relevant aspects of students' independent creative engagement in such activities.

Key words: Concept, creative potential, State educational standards, qualification requirements, science programs, Individualized approach, principle of systematicity, principle of modularity, principle of openness, principle of standardization.

КОНЦЕПЦИЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация

В статье анализируются концепция, технологии, содержание, проблемы, исследования и мнения ученых по вопросам развития творческого потенциала студентов высших учебных заведений. Представлены научное содержание термина «концепция», ее принципы, структура концепции обучения, анализ нормативных документов, являющихся источниками формирования концепции, ее руководящие идеи. В статье также выделены ведущие идеи современного концепта по развитию творческого потенциала студентов высших учебных заведений в социально-культурной деятельности, дан анализ этих идей, а также ряд важных и значимых для студентов сторон его самостоятельной творческой деятельности.

Ключевые слова: Концепция, творческий потенциал, государственные образовательные стандарты, квалификационные требования, программы по естественным наукам, индивидуализированный подход, принцип системности, принцип модульности, принцип открытости, принцип стандартизации.

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni talabalarining shaxsiy va kasbiy sifatlarini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, kelajakdagi ijtimoiy-madaniy faoliyat mutaxassisining shakllanishi uchun zarur sharoitlarni yaratadi va ushbu jarayonni ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan chuqur tadqiq qilish ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, ijodiy salohiyatni shakllantirish shaxsning tug'ma qobiliyatlari bilan bir qatorda, uni atrof-muhit, ta'lim muassasalarining o'quv jarayoni va ijtimoiy-madaniy omillar bilan uzviy bog'liq holda rivojlantirishni talab etadi. Ushbu jarayonni samarali

tashkil etish ijodiy tafakkur, innovatsion yondashuv va shaxsiy o'sish elementlarini o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlili. Ijodiy salohiyat tushunchasi ta'lim tizimi rivojlanishi bilan bog'liq holda doimiy ravishda takomillashib kelgan. Turli davrlarda pedagoglar va psixologlar ijodiy salohiyatni rivojlantirish masalalariga turlicha yondashganlar. Masalan: M.G.Merzlyakova ijodiy salohiyatni shaxsiy va kasbiy sifatlar hamda pedagogik jarayonda yangi nazariyalar va usullarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan bilim va ko'nikmalar tizimi deb ta'riflaydi [1]; Y.N.Kulyutkin esa bu tushunchani shaxsiy tizimli tuzilma sifatida tavsiflab, uni har qanday ijodiy faoliyatning zaruriy sharti deb hisoblaydi [2].

Ushbu ta'riflarning har biri ijodiy salohiyat tushunchasini turli nuqtayi nazardan yoritib berib, uning murakkab va ko'p omilli jarayon ekanligini ko'rsatadi. Ijodiy salohiyatni rivojlantirishning pedagogik determinantlari quyidagilardan iborat: shaxsning dunyoqarashi va estetik didi – ijodiy tafakkur va innovatsion qaror qabul qilishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar; bilim va kompetensiyalar darajasi – ijodiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan fundamental va amaliy bilimlar majmui; tahliliy va evristik tafakkur – mavjud bilimlar asosida yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati; motivatsiya va shaxsiy o'sish – shaxsning ijodiy faoliyatga bo'lgan intilishi va o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji; ta'lim tizimidagi ijodiy muhit – ta'lim jarayonida talabalarning ijodiy faoliyatini rag'batlantiruvchi shart-sharoitlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy ta'lim muassasalari talabalari ijodiy salohiyatining asosiy komponentlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: dunyoqarash va ijodiy tafakkur – shaxsning fikrlash va his-tuyg'ularining yo'nalishini belgilaydi; yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya – talabalarning o'z sohasida innovatsion yondashuvlarni qo'llash qobiliyati; evristik tafakkur va ilmiy bilimlar salohiyati – mavjud ilmiy asoslar va analitik usullarni konkret muammoli vaziyatlar kontekstida qo'llash qobiliyati.

Ijodiy salohiyat shaxsning innovatsion fikrlashi, nostandart qarorlar qabul qila olishi va yangi konseptual g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatiga asoslangan holati sifatida ham talqin etiladi. Bunday salohiyatni rivojlantirish shaxsning individualligi, psixologik tayyorgarligi hamda kasbiy shakllanishi bilan uzviy bog'liqdir.

Ijodiy jarayonni universal algoritm asosida tushuntirish yoki ijodkorlikni rivojlantirish bo'yicha meyoriy-funksional dasturlarni ishlab chiqish masalasi ko'plab falsafa va psixologiya olimlari tomonidan o'rganilgan, jumladan: Platon, F.SHelling, I.Kant, G.Gegel, D.Yum, I.Fixte, Z.Freyd va boshqalar.

Bu tadqiqotlar ijodiy tafakkurning shakllanishi, kreativlikni rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish borasida ilmiy asoslarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarida ijodiy salohiyatni rivojlantirish masalasi

ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish konsepsiyasi metodik tizim doirasida amalga oshirilishi lozim. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun muvofiq va puxta ishlab chiqilgan konsepsiya talab etiladi. Bu konsepsiya talabalarning bilim ehtiyojlarini, ijodiy salohiyatni rivojlantirish yo'nalishlarini va ta'lim jarayonidagi zamonaviy talablarni hisobga olgan holda loyihalanishi kerak.


Bunday konsepsiya ta'lim jarayonining izchilligini ta'minlash, o'quv jarayonini boshqarish va talabalarni kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, u metodik tizim doirasida turli didaktik tamoyillar, innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni integratsiyalash imkonini beradi.

Konsepsiyani yanada aniq va to'g'ri asoslash uchun, avvalo, ushbu tushunchani nazariy jihatdan tahlil qilish zarur. Falsafiy nuqtai nazardan, "konsepsiya" yoki "konsept" (lotincha conceptio – tushunish, tizim) obyekt, hodisa yoki jarayonni muayyan tushunish (izohlash, anglash) usulini ifodalaydi. Bu tushuncha mavzu bo'yicha asosiy nuqtai nazarni va ularni tizimli yoritish uchun yo'naltiruvchi g'oyani anglatadi.

"Konsepsiya" atamasi ilmiy, siyosiy yoki boshqa faoliyatda yetakchi g'oyani, konstruktiv tamoyilni belgilash va uni mazmunan tushuntirish uchun ham keng qo'llaniladi. U tizimni tashkil etuvchi asosiy elementlar, tamoyillar va yo'nalishlarni aniqlash orqali jarayonning yaxlitligini ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar. Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish konsepsiyasi, mazkur tizimning asosiy g'oyalarini aniqlash va ularni amalga oshirish yo'nalishlarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak.

Konsepsiya umumlashtirilgan qoidalar tizimi, ta'lim jarayonida talabalarni zamonaviy raqamli texnologiyalarning ahamiyatini tushunishga qaratilgan qarashlar tizimidir. Ko'rib chiqilayotgan konsepsiyaning tuzilishi 1-rasmda keltirilgan va asos, nazariy qism va amaliy qo'llash bo'limlarini o'z ichiga oladi. Konsepsiya asosi tushunchaning maqsadi, manbalari va xususiyatlarini o'z ichiga.



1-rasm. Talim berish konsepsiyasining tuzilishi

Konsepsiyaning maqsadi oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishning metodik tizimi yetakchi g'oyalari, tamoyillari va asosiy qoidalarini nazariy asoslashdan iborat. Konsepsiyaning shartliligi va

uni shakllantirish zarurati quyidagi maqsadlar bilan belgilanadi:

1) raqamli texnologik ta'limni rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni oliy ta'limda qo'llash, oliy ta'limni raqamlashtirish;

2) konsepsiya Davlat talablari tomonidan oliy ta'limga qo'yiladigan zamonaviy talablarni hisobga olgan holda amalga oshirish uchun zarur;

3) konsepsiya yangi texnologiyalarning tez paydo bo'lishi va rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan yangi muammolarni hal qilish uchun oliy ta'lim jarayonining subyekti sifatida oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan;

4) konsepsiya oliy ta'lim va pedagogik jarayon o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatni rivojlanganlik darajasiga qo'yiladigan zamonaviy talablar pedagogik texnologiyalarida ham, ta'lim mazmunida ham o'zgarishlar zarurligini belgilaydi. Oliy ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari va texnologiyalari istiqbolli texnologiyalar, birinchi navbatda raqamli texnologiyalar bilan belgilanishi kerak;

5) konsepsiya oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish va uning maqsadlarga erishish va oliy ta'lim muammolarini hal qilishga yo'naltirilganligi, rivojlanishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Konsepsiyaning manbalari ilmiy-nazariy faktlar, nazariy va metodologik qoidalar, ilmiy ishlarda yoritilgan hamda meyoriy hujjatlarda bayon etilgan nazariyalar majmuini tashkil etadi. Bizning konsepsiyamizda manbalar sifatida quyidagilar belgilangan:

Tizimli va yaxlit yondashuvlar: Pedagogik jarayonni tizimli va yaxlik tarzda ko'rib chiqish tamoyillari. Bu yondashuv ta'lim jarayonining barcha elementlarini bir-biri bilan bog'liq holda tahlil qilishga imkon beradi.

Nazariy asoslar: talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga oid nazariy tamoyillar va ilg'or ilmiy yondashuvlar.

Bu manbalar konsepsiyaning nazariy asoslarini tashkil qilib, talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun samarali yo'nalishlarni belgilashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv tizimni uzluksiz va izchil takomillashtirishga ko'maklashadi.

Konsepsiyani shakllantirish manbalari bo'lgan meyoriy hujjatlarga quyidagilar kiradi:

- Davlat ta'lim standartlari;
- malaka talablari;
- fan dasturlari.

Konsepsiya asosidagi asosiy nazariy va metodologik qoidalar quyidagi ilmiy ishlarda keltirilgan:

• tizimli va yaxlit yondashuvlar N.V.Kuzmina va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritib berilgan;

• oliy ta'limning nazariy asoslari (B.S.Gershunskiy va boshqalar);

• ijodiy salohiyatni trivojlabtirishning nazariy asoslari (O.I.Storojeva).

Konsepsiyaning o'ziga xos xususiyati zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi va oliy ta'lim mazmunini yangilash zarurati sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonidagi o'ziga xos yondashuvlarda namoyon bo'ladi.

Ushbu konsepsiya quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Innovatsion texnologiyalarning integratsiyasi: ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali talabalarining ijodiy salohiyatini kuchaytirish.

Mazmunni doimiy yangilash: oliy ta'lim mazmunini mehnat bozorining dinamik talablariga mos ravishda yangilash.

Individuallashtirilgan yondashuv: Har bir talabaning ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish.

Uzluksiz rivojlanish: ijodiy salohiyatni doimiy oshirish orqali talabalarining zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarga moslashishini ta'minlash.

Shunday qilib, konsepsiya oliy ta'lim tizimining innovatsion rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va zamonaviy talablar asosida talabalarining intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Konsepsiyaning nazariy bo'limi asosiy tamoyillari, kontseptual qoidalar, yetakchi g'oyalari, tuzilishi va mazmuni bilan belgilanadi.

Ko'rib chiqilayotgan konsepsiyaning yetakchi g'oyalari quyidagi qoidalar bilan belgilanadi:

1) oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish ilg'or ta'lim tamoyillari tizimiga asoslanishi kerak;

2) ta'lim natijasi oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Konsepsiyaning asosiy tamoyillari: tizimlilik tamoyili, modullik tamoyili, ochiqlik tamoyili, standartlashtirish tamoyili.

Konsepsiyaning asosiy qoidalar oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishning mazmuni, tuzilishi va natijalari, ta'lim shakllari va vositalariga oid qarashlar tizimini tashkil qiladi va quyidagicha shakllantiriladi:

1) itllektual salohiyat ilg'or ta'lim tamoyillari tizimi asosida amalga oshirilishi kerak;

2) oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyat kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish bilan birga bo'lishi kerak - yuqori motivatsiya, kasbiy kompetensiyalar va ijodiy salohiyatni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan zamonaviy raqamli texnologiyalarning holati va tendensiyalari;

3) ijodiy salohiyatni rivojlantirish qadriyatli-motivatsion, mazmunli-operativ va kreativ komponentlarni birlashtiradi. Qadriyatli-motivatsion komponent – bu talabalarining intellektual tabiatini, ijodiy salohiyatni oshirishga va ijodiy mahorat cho'qqilariga erishish istagini belgilaydigan qadriyatlar va motivlar to'plami bilan belgilanadigan shaxsiyat sifat, o'z ishiga ijobiy munosabat va oliy ta'lim amaliyotida innovatsion jarayonlarning ahamiyatini anglash. Mazmunli-operatsion komponent talabalarining texnologik, texnik va metodik savodxonligini, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar sohasida nafaqat moddiy va raqamli ko'nikmalarni, balki oliy ta'lim doirasida shakllangan kasbiy kompetensiyalarning mavjudligini ifodalaydi. Bu komponent talabalarining o'z faoliyatini zamonaviy talablar va texnologiyalar asosida tashkil etish qobiliyatini ta'minlaydi.

Kreativ komponent talabalarining intellektual kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu qobiliyat quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Fikrlash va o'z-o'zini tahlil qilish: talabaning muammolarni chuqur tahlil qilish va ularga ijodiy yondashish qobiliyati.

Jamoda ishlash qobiliyati: jamoaviy muhitda samarali hamkorlikni tashkil etish va boshqaruvni amalga oshirish mahorati.

Ushbu komponentlar birgalikda talabalarining professional faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun

zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni majmuaviy tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.

4) oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish metodik tizim asosida amalga oshirilishi kerak, uni amalga oshirish o'zaro bog'liq bo'lgan tizimli jarayonlarni o'z ichiga oladi: a) kasbiy rivojlanish; oliy ta'limning motivatsion asosi sifatida intellektual salohiyat va kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishga ongli ehtiyoj; b) oliy ta'lim muassasasi talabalarining ijodiy salohiyat va kasbiy kompetensiyalarini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish; v) oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalar sohasidagi ilmiy-tadqiqot va loyihalash faoliyatiga jalb qilish;

5) oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishning metodik tizimi fan-texnologik va metodologik ta'limining ajralmas elementi bo'lishi, ularning kasbiy kompetensiyalarini yangilash va umumlashtirish zarur.

Konseptual apparati uning terminologik sohasini belgilaydi va o'rganilayotgan muammo sohasidagi ilmiy bilimlarning ontologik tomonini aniq ifodalash uchun mo'ljallangan. Konsepsiyada qo'llaniladigan asosiy atamalar va tushunchalar: masofaviy yordam, pedagogik yordam, o'quv dasturi, individual ta'lim yo'nalishi, ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, intellektual salohiyat, kasbiy kompetensiyalar, ta'lim texnologiyalari va boshqalar. To'liqlik, mustahkamlik tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilgan konseptual apparat o'rganilayotgan hodisaning asosiy komponentlarini aks ettiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish konsepsiyasi metodik tizim doirasida amalga oshirilishi lozim. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun muvofiq va puxta ishlab chiqilgan konsepsiya talab etiladi. Bu konsepsiya talabalarning bilim ehtiyojlarini, ijodiy salohiyatni rivojlantirish yo'nalishlarini va ta'lim jarayonidagi zamonaviy talablarni hisobga olgan holda loyihalash kerak.

ADABIYOTLAR

1. Мерзлякова М.Г. Развитие творческого потенциала педагога в процессе проектирования личностно – ориентированной системы образования в средней школе (на примере создания многопрофильного лицея). Дис. канд.пед. наук. – СПб.,1995. – С.25.
2. Кулоткин.Ю.Н. Изменяющийся мир и проблемы развития творческого потенциала личности.-СПб.: Гос.Ун-т.пед. мастерства,2002.-83 с.
3. Сластенин В.А. “Педагогика”. Раздел 5. – М., 2003.
4. Кант И. О педагогике. - М., 1896., 60 –б.
5. Вересов Н.Н. Образование как способ развития индивида: концепция Гегеля // Культура, образование, развитие индивида. – М., 1990.
6. Фрейд З. Психологии бессознательного // Сборник произведений. / Сост. М.Г. Ярошевский. – М.: Просвещение, 1990. – 448 с.
7. Berdiyeva Gulabad Shonazarovna. (2024). Use of views in the history of national education in the development of students' creative thinking. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal,12(3), 164–167. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/6555>
8. Бердиева, Г. Ш. Гуманизация процесса профессионально-педагогической подготовки будущих учителей / Г. Ш. Бердиева, Н. И. Джумаева. – Текст : непосредственный // Образование и воспитание. – 2015. – № 3 (3). – С. 1-2. – URL: <https://moluch.ru/th/4/archive/9/143/> (дата обращения: 02.06.2025).
9. Berdieva Gulobod Shonazarovna. (2023). Formation of an Analytical Attitude to Information Among Students. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 17, 71–73. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/3408>